

Qulay va jozibador biznes muhiti – tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 12-13 mart kunlari Navoiy viloyatida bo'ldi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentimiz Navoiy shahrida viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Videokonferensaloqa shaklida o'tgan yig'ilishda viloyat faollari, deputatlar, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, shaharlar va tumanlar hokimlari, nuroniylar, yosh tadbirkorlar, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari viloyatni kompleks rivojlantirishga qaratilgan dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Qayd etilganidek, Navoiy viloyati yurtimiz sanoatining mustahkam ustuni bo'lib, uning 10 foiz mahsulotini ta'minlaydi. Islohotlar natijasida o'tgan yili viloyatda investitsiyalar 1,8 barobar, qurilish ishlari 28 foiz, xizmat ko'rsatish – 12 foizga o'sgan. Shuningdek, qariyb 1 trillion so'm investitsiya hisobiga 420 ta ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyekti ishga tushirilgan.

Yig'ilishda mavjud rezerv va imkoniyatlardan to'la foydalanilmayotgani ta'kidlandi. Viloyat iqtisodiyoti asosan bir nechta yirik korxonaga bog'liq bo'lib qolgani, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yetarli darajada rivojlanmagani qayd etildi.

Viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirishga jiddiy turtki berish uchun shunday qulay va jozibador biznes muhitini yaratish kerakki, nafaqat mahalliy, balki boshqa viloyatlar aholisi ham bu yerga kelib, tadbirkorlik bilan shug'ullanishga intilsin. Boshqacha aytganda, Navoiy viloyati – tadbirkorlar viloyatiga aylanishi kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari Navoiy viloyatini eksportga yo'naltirilgan innovatsion va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar bo'yicha erkin iqtisodiy zonaga aylantirishni taklif qildi. Qayd etilganidek, buning uchun Bosh vazir o'rinbosari rahbarligida maxsus komissiya tuzilib, mazkur iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan imtiyoz va yengilliklar tizimi belgilanadi.

Yig'ilishda investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi zamonaviy korxonalar tashkil etish va aholini ish bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Navoiy viloyatida 2019-2020 yillarda amalga oshiriladigan umumiy qiymati 26 trillion 368 milliard so'mlik 511 ta investitsiya loyihasidan iborat dastur ishlab chiqilgani ma'lum qilindi.

Mazkur dastur doirasida 1 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish, 17 ming 400 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Jumladan, Navoiy issiqlik elektr stansiyasi, "Qizilqumsement", "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa tarmoqlarda 12 ta yirik loyiha amalga oshiriladi.

Birinchi navbatda, Nurota, Xatirchi, Tomdi, Konimex kabi rivojlanish darajasi past bo'lgan tumanlarda yangi sanoat korxonalarini tashkil etishga ustuvor ahamiyat qaratish lozimligi qayd etildi.

Prezidentimiz Nurota tumanidagi G'ozg'on posyolkasiga shahar maqomini berib, uni pardoz toshlari qazib olish va ishlov berishga ixtisoslashgan sanoat shahriga aylantirish taklifini ilgari surdi. Granit va boshqa pardoz toshlarini sanoat usulida qazib olish, ishlov berish va tayyor qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalaridan iborat klaster tashkil etish bo'yicha qiymati kamida 200 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha topshiriq berildi.

Davlatimiz rahbari qishloq xo'jaligidagi imkoniyatlarni ham tahlil qilib, paxtadan bo'shagan maydonlarda bozorbop meva-sabzavot yetishtirish, viloyatda tomorqalardan samarali foydalanish hisobiga qishloq aholisini band qilish va daromadini oshirish, tomorqalarga ekin ekishni davlat siyosati darajasiga ko'tarish, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va qorako'l teri tayyorlashni ko'paytirish, eksport hajmini oshirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, aholi hayoti sifatini, investitsiya iqlimini, ishchanlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlari markazlarida aholiga tez, sifatli va keng turdagi davlat xizmatlari ko'rsatish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev faollar yig'ilishidan so'ng Navoiy shahar Davlat xizmatlari markazi faoliyati bilan tanishdi.

Markazda elektron navbat tizimi joriy etilgan, fuqarolarga 100 dan ortiq turdagi davlat xizmatlari ko'rsatiladi. Notarial xizmatlar, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish, pasportni rasmiylashtirish, haydovchilik guvohnomasini almashtirish va boshqalar shu

yerning o'zida amalga oshiriladi.

Mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida bolalar maydonchasi, kafe, mutolaa xonasi, bepul Wi-Fi aloqasi tashkil etilgan. Bu yerga kelganlar ulardan foydalanib, kutish vaqtini mazmunli o'tkazishi mumkin.

Markazga kelolmaydigan hamda olis ovul va qishloqlarda yashaydigan aholi uchun maxsus transportlarda joylarga chiqqan holda xizmat ko'rsatiladi.

Prezidentimiz markaz faoliyati bilan tanishar ekan, bunday markazlarda asosiy maqsad fuqarolarni davlat idoralari faoliyatidan rozi qilish ekanini ta'kidladi.

Davlat xizmatlari markazlarida eng asosiy talab – muomala madaniyati bo'lishi kerak. Bu yerga kelgan har bir inson muammosiga yechim, savoliga javob topishi lozim. Barcha harakatlarimiz ana shu maqsadga qaratilgan, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz Xalq qabulxonasining markazdagi bo'limiga kirib, xodimlar bilan suhbatlashdi. Aholi qanday masalalar bo'yicha murojaat qilayotgani bilan qiziqdi.

Shu yerda Navoiy viloyatida tadbirkorlik, kichik biznes va hunarmandchilikni rivojlantirishga doir loyihalar taqdimoti o'tkazildi. Xususan, eksperiment tariqasida "Navoiy – tadbirkorlar viloyati" loyihasi amalga oshiriladi. Bunda qulaylik yaratish maqsadida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazishda davlat boji ikki barobar kamaytiriladi. Qator xizmat ko'rsatish sohasiga imtiyozlar beriladi.

Prezidentimiz davlat xizmatlari markazda tadbirkorlar uchun xizmat turlarini kengaytirish, xususan, ularga yer ajratish, qurilishga ruxsat olish kabi jarayonlarni integratsiyalash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev Navoiy shahridagi 3-sonli ichki ishlar bo'limini borib ko'rdi.

Prezidentimizga bu yerda yaratilgan sharoitlar, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida axborot berildi. Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyatida jinoyatlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 54 foiz, Navoiy shahrida esa 63 foiz kamaygani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar bilan muloqotda ayollarning turmush sharoitini o'rganib borish, og'irini yengil qilish zarurligini ta'kidladi.

Agar jamiyatimizda adolatni qaror toptirmoqchi bo'lsak, avvalo, xotin-qizlarning ishonchini qozonishimiz, ularni asrashimiz kerak. Ayolning yashash tarzi, dunyoqarashi oila muhitini belgilaydi. Bu farzandlar tarbiyasi uchun juda muhim, dedi Shavkat

Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari ichki ishlar bo'limidagi situatsion markazni ko'zdan kechirdi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashga ixtisoslashgan dasturiy mahsulotlar yaratish, jinoyatchilikni turlari bo'yicha tahlil qilib, ularning oldini olish yuzasidan tavsiyalar berdi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Navoiy viloyatiga tashrifi yakunlandi.

O'ZA